

## O'QITUVCHI FAOLIYATIDA MULOQOT MADANIYATI VA PSIXOLOGIYASI

Sabirova Muxarram

*Andijon davlat pedagogika instituti o`qituvchisi*

**Ibrohimov Diyorbek Sirojiddin o`g`li**

**Tojioxunov Saidislom Abduraxmon o`g`li**

*Andijon davlat pedagogika instituti Texnologik ta`lim 3-bosqich talabalari*

**Annotatsiya:** Pedagogik faoliyat madaniyat bilan o‘zviy ravishda bog‘langan bo‘ladi. Yuqori saviyali madaniyat - pedagog mehnatining zaruriy sharti hisoblanadi. Madaniyat – so‘zi lotinchadan tarjima qilinganida «ishlov berish», «yetishtirish» ma’nosini bildiradi. U insoniyat tomonidan ijtimoiy-tarixiy amaliyoti jarayonida yaratilgan va yaratilayotgan, jamiyatning rivojlanshidagi tarixiy erishilgan darajasini ifoda etuvchi moddiy va ma’naviy qadriyatlari to‘plamidan iborat bo‘ladi. Madaniyat keng ma’noda - bu jamiyatning rivojlanishi tarixiy darajasidir. U odamlarning hayoti va faoliyatini tashkil etish turlari va shaxslarida hamda ular yaratayotgan moddiy – ma’naviy qadriyatlarda xam o‘z ifodasini topadi. Tor ma’noda madaniyatni modiy va ma’naviylik kabi ham tushuniladi. Moddiy madaniyat ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan texnika, ishlab chiqarish tajribasi, moddiy mablag‘lardan iborat bo‘ladi. Ma’naviy madaniyat fan, san’at, adabiyot, ta’lim, falsafa kabi sohalarda ma’naviy qadriyatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va foydalanishdan iborat bo‘ladi. O‘qituvchining o‘zini namoyon etishi jamiyatning tarbiyaviy, ta’limiy va rivojlantiruvchi kuchi hisoblangan, insoniyat to‘plagan tajribani egallamay turib, amalga oshirib bo‘lmaydi. Pedagogik madaniyat imkoniyat yaratgan pedagogik tajribalarni egallab olish orqali ko‘p qirrali munosabatlar va muammolarni vujudga keltirishga yordam beradi, o‘zini anglashni, o‘zini takomillashtirishni ta’minlaydi.

**Kalit so`zlar:** Madaniyat, an'ana, kommunikativ ataka, pedagogik muloqot, psixik holat, nutq, shaxsiy, bevosita, odamiylik, haqiqatgo'ylik , talabchanlik, Ko'zatuvchanlik, e'tiborlilik va odoblilik.

## КУЛЬТУРА ОБЩЕНИЯ И ПСИХОЛОГИЯ В ОБУЧЕНИИ

**Аннотация:** Педагогическая деятельность неразрывно связана с культурой. Высокий уровень культуры является необходимым условием педагогического труда. Слово культура в переводе с латинского означает «возделывать», «возделывать». Она представляет собой совокупность материальных и духовных ценностей, созданных и создаваемых человечеством в процессе его общественно-исторической практики, выражающих достигнутый исторический уровень развития общества. Культура в широком смысле — это исторический уровень развития общества. Она выражается также в типах и особенностях жизни и деятельности людей, а также в материальных и духовных ценностях, которые они создают. В узком смысле культура понимается как материальная, так и духовная. Материальная культура состоит из технологий, производственного опыта и материальных ресурсов, созданных в процессе производства. Духовная культура заключается в производстве, распространении и использовании духовных ценностей в таких областях, как наука, искусство, литература, образование и философия. Самовыражение педагога, рассматриваемого как образовательная, воспитательная и развивающая сила общества, не может быть реализовано без овладения опытом, накопленным человечеством. Педагогическая культура помогает создавать многогранные отношения и проблемы, фиксируя педагогический опыт, который создает возможности, а также обеспечивает самосознание и самосовершенствование.

**Ключевые слова:** Культура, традиция, коммуникативный подход, педагогическое общение, психическое состояние, речь, личностный, непосредственный, человечность, правдивость, требовательность, наглядность, внимательность и порядочность.

## COMMUNICATION CULTURE AND PSYCHOLOGY IN TEACHING

**Abstract:** Pedagogical activity is inherently connected with culture. A high level of culture is a necessary condition for pedagogical work. The word culture, translated from Latin, means “to cultivate”, “to cultivate”. It consists of a set of material and spiritual values created and being created by humanity in the process of socio-historical practice, expressing the historically achieved level of development of society. Culture in a broad sense is the historical level of development of society. It is expressed in the types and individuals of organizing people's lives and activities, as well as in the material and spiritual values they create. In a narrow sense, culture is understood as both material and spiritual. Material culture consists of technology, production experience, material resources created in the production process. Spiritual culture consists of the production, distribution and use of spiritual values in such areas as science, art, literature, education, philosophy. The self-expression of a teacher, which is considered the educational, educational and developmental force of society, cannot be realized without mastering the experience accumulated by humanity. Pedagogical culture helps to create multifaceted relationships and problems by mastering the pedagogical experiences that have created opportunities, ensures self-awareness, self-improvement.

**Keywords:** Culture, tradition, communicative approach, pedagogical communication, mental state, speech, personal, direct, humanity, truthfulness, demandingness, Observance, attentiveness and decency.

### KIRISH

Pedagogik madaniyat muamolarini o‘rganish. Bu tizimning quyidagi tashkiliy qismlarini ajratib ko‘rsatishga imkoniyat beradi. O‘qituvchining shaxsiy kasbiy pedagogik yo‘nalganligi. Bu komponent tizimini tashkil etuvchi element hisoblanadi. U pedagogik jarayonning uning qiziqishlari, layoqati, ishonchi, g‘oyalari orqali pedagog faoliyatni insonparvarlashtirishga qaratilgan mustahkam sabablar to‘plamidan iborat bo‘ladi. Pedagogik jarayoni tashkil etishda o‘qituvchining shaxsi kasbiy pedagogik yo‘nalganligi quyidagilarni o‘z ichiga oladi. G‘oyalalarini (pedagogik vazifalarni keng

ko‘ra olishi, pedagogik fikrlashi, rivojlanishi, o‘zini rivojlantirish bilan shug‘ullanishi, pedagogik o‘zaro aloqalarda professionalzmga erishish) Qiziqishlari (fanga qiziqishi, psixologik-pedagogik bilimlarini takomillashtirishi, o‘qituvchilarning ta’lim darajasini va umumiy ma’naviy madaniyatlarini oshirish) Qadriyatli yo‘nalishlari (yuqori bilmga ega bo‘lish, tarbiyalash, o‘qituvchi va rivojlantirish jarayonlarida o‘quvchilarini faollashtirish). Bu tadqiqotlarning umumiy xulosalariga asosan, kasbiy pedagogik yo‘nalganlikning muhim omili bo‘lib, o‘qituvchining insonparvarligi, uning o‘quvchilarga oliy qadriyat sifatida munosabati, o‘quvchining shaxsi, qadr-qimmatini hurmat qilish, mehribonligini do‘stona talabchanligini, befarqlik kamsitish va shavqatsizlikka yo‘l qo‘ymasligi hisoblanadi. Pedagogik faoliyatga iste’dodi asosida sabablari va maqsadlari yotadi. Sabablari pedagogning pedagogik faoliyatiga anglab yetgan holda intilishi bilan ifodalanadi. Maqsadlari – bu o‘qituvchining kasbiy faoliyatida natijalarga erishishga intilishlaridir. Shunday o‘qituvchi shaxsining kasbiy pedagogik yo‘nalganligi o‘zida uning g‘oyalarini, qiziqishlarini, qadriyatli yo‘nalishlarini birlashtiradi va pedagogning shaxsiy sifatlarini moslashtirishi haqiqiy imkoniyatlarini, uning o‘kuv tarbiyaviy jarayon talablari kasbiy darajasini aks ettiradi.

## TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Milliy qadriyatlarimiz va sharqona tarbiyamizning ta’siri Insonning o‘zini qurshab turgan olam bilan o‘zaro birgalikdagi harakati odamlar o‘rtasidagi ularning ijtimoiy hayoti va ishlab chiqarish faoliyati jarayonida tarkib topadigan ob’ektiv munosabatlar sistemasida yuz beradi. Kishilar ishlab chiqarish jarayonida tabiatgagina emas, balki bir-birlarga ham o‘zaro ta’sir ko‘rsatadilar. ("Pedagogik muloqot" 1-8 bet) Milliy qadriyatlarimiz va sharqona tarbiyamizning ta’siri muloqotda ham sezilib turadi. Bizda kishilar bilan munosabat, so‘zlashuv va shuningdek ish, xizmat bilan bog‘liq aloqaga muomala deyiladi. Eng go‘zal muomala lutf-karamdir. A.Navoiy buni muomala-pardoz deb yozadi. Xullas xalqimizda odamlar bilan munosib tarzda muomala qila bilishlik madaniyat, oljanoblik alomati deb tushunilgan. Muomala madaniyati, eng avvalo, xalqimizning bolajonligi, oilani muqaddas bilishida namoyon bo‘ladi. Ikki notanish o‘zbek yigiti uchrashib qolsa, salom-alikdan keyingina suhabatni "Uylanganmisiz?"

degan gapdan boshlaydi. Agar ular 30 yoshlarda bo'lsa savol boshqacharoq bo'ladi: "Og'ayni bolalardan nechta?" Ha, kasb-kor, uy-joy, boylik va shu kabi moddiy jihatlar surishtirilmaydi, bu odob doirasiga kirmaydi ham, lekin bola-chaqadan so'z ochish o'zbeklarga xos milliy odatlardandir. Ota-onas uchun farzandlari haqida maqtov eshitish, "Otangga rahmat" degan olqish ham eng katta saodatdir. O'rta yoshdagi tanish yoki notanish erkaklar va ayollar muloqotida "hammasidan qutilganmisiz?" degan savol uchrashi tabiiy. o'g'llarini uylantirib, qizlarini o'zatib bo'lganmisiz? Ota-onas farzandlarini oilali, uy-joyli qilish tashvishi bilan yashaydi, bu ular hayotining mazmuni bo'lib qoladi. Barcha madaniy xalqlarda bo'lgani kabi o'zbeklarda ham muomala "Assalomu-alaykum" va "Vaalaykum assalom"dan boshlanadi, keyin hol-ahvol so'rashishga o'tiladi. Muomala va muloqotda xalqimizning milliy an'analari va urf-odatlari ham ta'sirini ko'rsatadi.

## TADQIQOT NATIJALARI

"An'ana" arabcha so'z bo'lib, o'zok, zamonlardan beri avloddan- avlodga, otalardan bolalarga o'tib davom etib kelayotgan urf- odatlar, axloq mezonlari, qarashlar va shu kabiladir. Xalqimizning ilg'or an'analarini o'zlashtirish, unga rioya qilish va boyitib borish lozim. Xalqimizda azaldan ko'pchilik ishtirokida o'tadigan turli bolalar o'yinlari, choyxona suhbatlari, to'y-ma'rakalar, mavsumiy bayramlar-lola sayli, "boychechak" aytish, qovun sayli, qizlar majlisi, kelin salomi, yuz ochtisi, sumalak, kurash, mehmon kutish kabi ko'plab marosimlarimiz o'zbek xalqiga xos bo'lgan "o'zbekona", "Sharqona" tarbiyalashda katta rol o'ynaydi. Xalq og'zaki ijodimiz ham bolalarda turli ahlokiy sifatlarni tarbiyalashda muhim rol uynaydi. Sharqona munosabatda ota-onaga hurmat bilan qaralishi ularning gapini ikki qilmaslik, ota-onaning izmidan chiqmaslik, shu bilan birga otaga gap qaytarish, unga tik boqish gunoh hisoblanishi kabi holatlarni kurishimz mumkin. Yoki ustozga hurmat bilan qarash kabi xislatlar ham katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Muloqotda turli xalq og'zaki ijodiga xos bo'lgan afsona, rivoyat, ertaklar, maqollar va hikmatlardan foydalanish ham kishini muomala madaniyatni kuchaytiradi va ikkinchidan katta tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Jamiyatni demokratlashtirish - maktabdagi munosabatlarni insonparvarlashtirishdir. Pedagogik

amaliyot davrida talablar bilan birga maktab direktori fan bo'yicha eng ilg'or deb tanishtirgan o'qituvchining darsiga kirdilar. Haqiqatdan ham, o'qituvchi mavzuni juda yaxshi biladi, qator qo'shimcha adabiyotlardan foydalaniladi, mavzuni yorita oladi. Lekin o'quvchilarga nima bo'lgan? o'qituvchi qiziqarli, mazmunli savollar berayapti. Lekin hamma o'quvchilar pedagog fikrini tushunib yetmayapti, ozgina yordam kerak. Lekin o'qituvchida o'quvchi javobini eshitishga chidam yetishmayapti. Hatto bir qo'l ko'tarib javob bermoqchi bo'lgan o'quvchiga jerkib berdi: "Nimaga qo'lingni buncha chaypaysan? Bu odatingdan boshim og'rib ketdi" (Bilmasang nimaga qo'l ko'tarasan?) Darsdan so'ng talabalar bir ovozdan darsni qoniqarsiz deb baholaydilar. Bu yerda faqat o'qituvchining bilimi emas, balki dars muhiti, o'qituvchi va o'quvchi muloqoti, munosabati muhimdir. Ayniqsa hozirgi kunimizda oldimizga erkin, mustaqil fikrlovchi har tomonlama yetuk yoshlarni tarbiyalash vazifasi turganda, bu muloqot aslida muhim ahamiyat kasb etadi. Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Bir maktab direktori shunday deydi: "o'quvchilar bilan bir o'zim kurashayapman, aslida hamma birga kurashishi kerak". U maktabdagagi o'quv va tarbiya jarayonini yaxshilash uchun o'quvchilarga qarshi kurash yo'lini tanlagan. Ularni o'z irodasiga bo'ysundirmoqchi. Buning natijasida bir-biriga qarshi 2 lager yuzaga keladi: o'quvchilar va o'qituvchilar. Muloqot-pedagogik faoliyatdagagi eng muhim kasbiy quroldir. Pedagogik muloqot - bu o'qituvchining o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari vaqtida eng qulay psixologik muhit yaratishga qaratilgan kasbiy munosabatdir. Noto'g'ri pedagogik muloqotdan o'quvchida qo'rquv, ishonchhsizlik, e'tibor, diqqat, ishchanlik pasayadi, nutq dinamikasi bo'ziladi, mustaqil fikrlash pasayadi. O'qituvining o'quvchilar bilan muloqoti bunday kayfiyata yo'l qo'ymasligi, o'quvchini faollikka undashi, unda quvonch paydo qilishi kerak. A.S.Makarenko fikricha o'qituvchi muloqoti hypmat va talabchanlikka asoslangan munosabat bo'lishi kerak. V. Suxomlinskiy aytadiki: "Maktab hovlisida gapirilganda har bir so'z o'yangan aqli, maqsadga qaratilgan bo'lishi kerak". o'qituvchi so'zi faqat qulorra emas, balki yurakka ham qaratilgan bo'lishi kerak. O'quvchi o'qituvchisiga do'stiga, o'rtog'i va ustoziga bo'lgan munosabatda bo'lishi kerak. o'qituvchi o'quvchi munosabati dustlikka asoslanishi lozim. Umuman ilg'or pedagoglar fikricha ta'lim faqat hamkorlik

pedagogikasi pozitsiyasida bo‘lishi kerak. Pedagogik muloqot funksiyalari. Pedagogik muloqot sotsial psixologik jarayon sifatida quyidagi funksiyalari bilan xarakterlanadi: - shaxsni bilish; - axborot almashinish; - faoliyatni tashkil etish; - rollar bilan almashish; - boshqalar uchun qayg‘urish; - o‘z fikrini tasdiqlash. Muloqotning axborot almashish funksiyasi materiallar va qadriyatlar bilan almashish jarayonini ta’minlab, hamkorlikdagi izlanish muhitini, o‘quv tarbiya jarayoni uchun qulay sharoit yaratadi. O‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayoniga shaxsiy rolli shakl kiritadi: o‘quvchilarni darsning turli elementlarini bajarishga jalb etadi, o‘quvchilarga tashkilotchi va ijrochi rollarida qatnashishga imkoniyat beradi. Muloqot shaxsni o‘zini tasdiqlash funksiyasini ham bajaradi. Pedagogning vazifasi o‘quvchiga o‘zining "Menligi"ni anglashga o‘zining shaxsiy ahamiyatini bilishga; o‘ziga baho berishga o‘rgatishi kerak. O‘qituvchi darsni rejalashtira turib, faqat axborot berishni emas, balki bolalarni o‘z fikrlariga ishonch va imkoniyat ham yaratish kerak. Pedagogik muloqot tuzilishi. V.A.Kan-Kalik fikricha pedagogik muloqot jarayoni quyidagicha to‘ziladi: Pedagog tomonidan sinf bilan bo‘lgusi muloqotni modellashtirish (prognostik etap); Dastlabki o‘zaro faoliyatdagi bevosita muloqotni tashkil etish (Kommunikativ aloka); Pedagogik jarayon borishida muloqotni boshqarish; Amalga oshirilgan muloqotni tahlil etish va uni yangi faoliyat uchun modellashtirish. Muloqotning har bir bosqichida o‘qituvchi nimani bilishi kerak? Modellashtirish bosqichi auditoriyaning o‘ziga xosligi, xususiyatlarini bilishini talab etadi: bilish faoliyati xarakteri, uchrashi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar: ish dinamikasi tayyorlanayotgan dars o‘zaro hamkorlikka mos va faqat o‘qituvchi shaxsidan emas, balki o‘quvchi shaxsi tomonidan ham o‘ylangan bo‘lishi, turli variantlarda to‘zilishi lozim. "Kommunikativ ataka" bosqichida sinfning tezda ishga jalb qiladigan texnika kerak, samoprezantitsiya va dinamik ta’sir priyomlarini egallash lozim. Muloqotni boshqarish bosqichida o‘quvchilar tashabbusini quvvatlash, dialog muloqot tashkil etish, o‘z fikrlarini real sharoitga moslay olish ko‘nikmalarini zarur bo‘ladi. Tahlil qilishda maqsad, vosita va natijalar majmuasini tahlil etadi. O‘quv tarbiya jarayonida o‘qituvchi muloqotni tashkil etish va boshqarishda rahbar, tashabbuskor bo‘ladi. Insonning ahloqiy tarbiyalanganligi uning atrofidagi narsalarga bo‘lgan turli-tuman munosabatlarda namoyon bo‘ladi. U insonning hislarida

kechinmalarida ifodalanadi hamda xulh atvorida hatti xarkatida bo‘ladi. Bolalarga yaxshilik qilish va mehribonlik ichki kechinmamiz bilan holatdagina emas, balki pedagogik faoliyatimizdagi bola bilan yoki sinf bilan munosabatdagi asosiy motiv asosiy rag‘bat bo‘lishi kerak. Muomala rollar orqali shaxs faoliyati uchun muayyan maydon yaratib, unda u yoki bu sotsial xulq atvorni programmalashtirish o‘qituvchi o‘quv tarbiya jarayoniga shaxsiy roli shaklini kiritadi. Dars jarayonida o‘quvchilarni o‘qituvchi tashkilotchi va ijrochi rollarida bo‘lishga imkon beradi. Muomala shaxsga o‘zini tanishga o‘rgatadi. o‘qituvchi darsni rejalashtirar ekan faqat axborotni egallah haqida o‘ylamasligi, balki avvalo o‘qituvchining yordamiga muxtoj bo‘lgan o‘quvchilarning o‘zi ifodalay olishi uchun sharoit yartish haqida o‘ylash, har bir o‘quvchining qiziqishini ta’minlovchi sharoitlarni ko‘ra olishi va hamkorlikni ta’minlanishi lozim. Muomala jarayoni ikki tipda bo‘lishi mumkin: Dialog va monolog. Monolog muomalada hamkorlik bir tomonning ijrochiligi asosida quriladi. Pedagogik faoliyat pedagogning bolalar bilan yaxshi munosabati jarayonida, ishni demokratik tashkil etish va birligida ijodiy faoliyat jarayonida bo‘lishi mumkin. Diologik muomilada esa hamkorlik ikki tomonning ijrochiligi asosida quriladi, ya’ni savol – javob tariqasida. Pedagogik muloqot bu o‘qituvchi professional aktivligining bir ko‘rinishi bo‘lib, bunda ta’lim va tarbiya vazifalari o‘qituvchi hamda o‘quv tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir vositasi bilan hal qilinadi. Bu vaziyatda o‘qituvchi baho beruvchi rolida chiqadi, ikkinchi uning o‘zi baho oluvchi hisoblanadi. Ravshanki bunday hollarda pedagogik ta’sir ko‘rsatish vazifalari va vositalari ham o‘qituvchining pedagogik muloqoti har xil bo‘ladi. Biz quyida o‘qituvchining o‘quvchilar bilan muloqotini qarab chiqamiz. Pedagogik muloqotning tarkibiy qismlari uning vazifalari o‘qtuvchining o‘quvchilar va kasbdoshlari bilan o‘zviy aloqalari vositalar hamda usullari muloqot xarakteriga baho berishdan iborat bo‘ladi. Pedagogik muloqotning boshqa jihatni uning vositalari va usullaridir: vositalar tashkil etuvchi, baho beruvchi, intizomga undovchi bo‘lishi mumkin. Adabiyotlarda o‘qituvchi o‘z ishining ustasi ekanligi ta’kidlanib intizomga undovich vositalarga nisbatan tashkiliy ta’sir ko‘rsatishga ko‘proq yondashiladi. Muloqot usuli sifatida shakllangan uslub amalda o‘zining uchta shakli bilan namoyon bo‘ladi, bilimlarni egallahda o‘qituvchi

bilan o‘quvchilarning birgalikdagi hamkorlik qilishlari o‘qituvchining o‘quvchilarga tazyiq o‘tkazish va ularning aktivligini ruyobga chiqarmasligi, o‘qituvchining o‘quvchilarga nisbatan neytral munosabatlarda bo‘lishi va uning hal etilayotgan masaladan chetta chiqishi. Muloqotdagi vaziyat bir xil o‘zaro harakatni, boshqa ishtirokchiga tazyiq o‘tkazishni, boshqa ishtirokchiga muvofiqlashni o‘z ichiga oladi. Muloqotga emotsional tus berish harakteri neytral hol orqali ijobiyidan salbiyligicha o‘zgaradi. Bo‘larning hammasi muloqot muhitini, sinfda ma’lum iqlimni yaratadi. Yetuk pedagogik muloqot o‘qituvchining o‘z o‘zini muloqot jarayoni va natijalarini nazorat qilib borishini nazarda tutadi. Pedagogik muloqotda qanday o‘ziga xos qiyinchiliklari mavjud? Eng avvalo, muloqot maxsus vazifalarining yo‘qligidir, natijada o‘qituvchi pedagogik muloqotni o‘z mehnatining alohida tomoni sifatida qaramaydi, uni rejalashtirmaydi, muloqotning barcha vazifalari o‘quvchilarga bilim berishga keltiriladi. o‘qituvchi bilan o‘quvchining bir-birlarini o‘zaro tushunmasliklari, muloqot vositalarining qashshoqligi, nopedagogik vaziyatlar ham uchrab turadi. M: o‘quvchilarning tor doiradagi intizomga chaqiruvchi emotsional jihatdan salbiy tus berilgan muloqot ularga ko‘pincha aks ta’sir keltirib chiqaradi. Pedagogik muloqot usullari ustida ishslashning asoslangan programmasini to‘zish uchun har bir o‘qituvchi o‘zining qiyinchiliklarini tahlil qilib chiqish muhim rol o‘ynaydi. Pedagogik muloqotga doir barcha mashqlarning umumiyo‘nalishini mavjud pedagogik vaziyatlarda malaka hosil qilish har bir muloqot ishtirokchilarining imkoniyatlarini ochishga ko‘maklashuvchi uning shaxsiy hislatlarini rivojlanib boruvchi ta’minlovchi va shu muloqot orqali qoniqtiriladigan va hakoza vositalardan foydalanishi tashkil qiladi. Bunga bir qator mashqlar imkon tug‘dirishi mumkin. Muloqotga boshqa kishilarning sub’ektiv qarashlarini aniqlash, bu odam bilan muloqotda oqilona hal qilinishi zarur bo‘lgan vazifalarni aniqlash, masalan uning xulqini to‘zatish yoki unda shunchaki ishonch kayfiyatini yaratish. Mazkur vaziyat uchun o‘zaro harakatlarning sistemali vositalari majmuasini belgilash: muloqotda boshqa kishining javob harakati imkoniyatini oldindan ko‘ra bilish; boshqa odamda psixologik to‘siq va qarashlik keltirib chiqaruvchi vositalarini qo‘lga kiritish; vaziyatning o‘zgarishiga qarab foydalanishi mumkin muloqotlarning bir necha modeliga ega bo‘lish; boshqa odamlarni

tinglash, uning fikrlariga qo'shilish, unga hamdardlik ko'nikmasini rivojlantirib borish; muloqot natijalarini baholash va ularni ifodalanilgan vositalar bilan taqqoslash. Pedagogik faoliyat va pedagogik muloqot xarakteri o'qituvchi shaxsi, uning qarashlari nuqtai nazarlarida xulqida namoyon bo'ladigan g'oyaviy siyosiy saviyasi, professional tayyorgarligi va bilishga intilishi bilan o'zviy bog'liq. Bu asosiy hislatlardan tashqari o'qituvchining umumiy va boshqa qobiliyati, uning moyilligi xarakteri, muvaqqat psixik holatlari shuningdek to'plangan tajribasi muhimdir. o'qituvchi shaxsini xarakterlash uchun foliyatning individual uslubi kabi yig'ma ko'rsatkichlar, jumladan individual faoliyat uslubidan ham foydalanadilar. Ijodiyot: aktiv sotsial tutilgan yo'l vaziyat yetuk shaxs har doim bundan keyingi rivojlanishi uchun kurashadi, bu hol o'qituvchiga ham taalluqli. Shaxsning professional jihatini o'z-o'zini tarbiyalash yo'llaridan biri o'zining sifat va hislatlarini, shuningdek pedagogik faoliyat va muloqotlarining barqaror xususiyatlariga, o'qituvchining ta'lim olganligi va tarbiyalanganligidagi erishilgan natijalarini tahlil qilishga doir mashqlarda namoyon bo'ladi.

## MUHOKAMA

Kishilar o'rtasidagi o'zaro muloqot pedagogik-psixologik fanlaming asosiy kategoriylaridan biri hisoblanib, u o'z ichigj shaxslararo munosabatrung eng muhim mexanizmlarini qamrab oladi. Psixologiya fanida muomala kategoriysi keng ma'noda tushunilad: hamda hamkorlik faoliyatining ichki aloqasmi mujassamlashtirib, o'zarc ta'sir va o'zaro munosabatni aks ettiradi va ijtimoiy protsessual faoliyatni: ifodalaydi. Pedagogikada muloqot o'qituvchi va 0 'quvchilar jamoasining o'zar< ta'sir malakasi, usuli va tizimini anglatib uning mohiyati, o'zaro axboro ajmashishida, ta'lim va tarbiyaviy ta'sir o'tkazishida, o'zaro bir-birlarin tushunishga erishishlarida namoyon bo'ladi hamda quyidag: xususiyatlarga ega; muloqot o'qituvchining pedagogik faoliyatida eng muhim kasbiy quroq hisoblanadi; muloqot jarayonida uning maqsadga muvofiq amalga oshirishni ta'minlash uchun ijtimoiy nazorat va ijtimoiy qonuniyatlar muhim aha miyatga ega; o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining eng muhim tarkibiy qismi muloqot sanalib, motivatsiyada motiv qanday ahamiyat kasb etsa, u ham xuddi shunday muhim rol o'ynaydi; pedagogikada muloqot - o'qituvchining o'quvchilarga

ta'sir o'tka zish asosida o'zaro munosabatini faol tashkil qilishi, muayyan bir maq- sadni dastur asosida amalga oshirishning rejalarashtirilgan funksiyasini bajarishidir; muloqot - hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga kelib chi qadi va shaxslararo munosabat rivojlanishining ko'p qirrali jarayoni hisoblanadi; noto'g'ri pedagogik muloqotdan o'quvchilarda qo'rquv, o'z kuchi- ga ishonchsizlik paydo bo'ladi, ularning diqqat-e'tibori, ishchanlik harakati susayadi, nutq dinamikasi buziladi, mustaqil va erkin fikrlash qobiliyati pasayadi.

## XULOSA

O'quvchilarining axloqiy jihatdan tarbiyalanganligi uning atrof-mi hitga nisbatan bo'lgan munosabatlarida ham namoyon boiadi. Axloqi tarbiyalanganlik o'quvchining his-tuyg'ularida ichki kechinmalarida if< dalanadi va xulq-atvorida, o'qituvchi bilan muloqot jarayonida yuzag qalqib chiqadi. O 'quvchilar bilan yaqin munosabatda bo'lish va mehr bonlikni namoyish etish, o'qituvchining sinf jamoasi bilan munosabatc to'g'ri va odilona muloqotini tashkil etishda asosiy zamin boiadi. Muloqot turli rollar orqali shaxs faoliyati uchun ijtimoiy maydc yaratadi, shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini shakllantiradi. O 'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida o'zining shaxsiy tashabbuskor va rahbarli rolini namoyish etadi. Dais jarayonida esa O 'qituvchi o'quvchilami tasi kilotchi va ijrochi rollanda boiishga imkoniyat yaratishi kerak. Muloqi asosida shaxs o'zligini tanishni o'rganadi. O 'qituvchi darsni rejalarashtiri ekan, faqat o'rganilayotgan dars mavzusi to'g'risidagi ma'lumotls asosida o'quvchilarni axborot koiamiga jalg etishni o'yamasligi kera] balki o'qituvchining yordamiga muhtoj bo'lgan o'quvchilarni topish ularga yordam berish uchun sharoit yaratishi, har bir o'quvchiniE qiziqishini ta'minlovchi sharoitlami ko'ra olishi va o'zaro hamkorlik) ta'minlashi lozim. Pedagogik faoliyatda o'qituvchi muloqot asosida o'quvchilar bik yaxshi munosabatni tashkil eta olishi, demokratik talablami qo'llashi birgalikda ijodiy faoliyat olib borishi kerak. Pedagogik muloqot esa, t o'qituvchi kasbiy faolligining bir ko'rinishi bo'lib, bunda taiim \ tarbiya muammolari o'qituvchi hamda o'quv-tarbiyajarayonining boshc ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sir vositasi bilan hal qilinadi. B vaziyatda o'qituvchi baho beruvchi rolida namoyon boiadi hamda unin o'zi baho oluvchi hisoblanadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- 1 Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik-T, Iqtisod-moliya, 2011. 420 b.
2. Axmetjanov M.M, Tojiyev M, Tosheva G .Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat Darslik-T ; Toshkent 2008- 249 b
3. Mavlonova R, Abdurahimova D. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2009. -176 b

### **Elektron ta’lim resurslari**

1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. uz